info@myinsurance.uz
Toshkent sh. Kichik Mirobod 95
+998 95 341-20-20
+998 71 205-19-19

## “KASKO LIMIT GREEN” SUG‘URTA MAHSULOTI BO‘YIHA JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARGA TEGISHLI EKOLOGIK TOZA TRANSPORT VOSITASITALARI VA UNGA ALOQADOR XAVFLARNI SUG‘URTA QILISH OMMAVIY OFERTA

Ushbu Ommaviy Oferta (keyingi o‘rinlarda “Oferta” deb yuritiladi) “MY-INSURANCE” Aksiyadorlik Jamiyati Sug‘urta Tashkiloti tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning cheklanmagan doirasiga ekologik toza transport vositasitalari va unga aloqador xavflarni “KASKO LIMIT GREEN” sug‘urta mahsuloti bo‘yicha, Ofertada ko‘rsatigan shartlarda Sug‘urtalovchi ning rasmiy veb-sayti yoki Internet xizmati (avtomatlashtirilgan axborot tizimi, mobil ilovasi) orqali sug‘urtalash shartnomasini tuzish bo‘yicha yo‘naltirilgan taklifidir.

Ushbu Oferta sug‘urta polisini rasmiylashtirish sanasida amalda bo‘lgan “KASKO LIMIT GREEN” sug‘urta mahsuloti bo‘yicha ekologik toza transport vositasitalari va unga aloqador xavflarni sug‘urta qilish bilan tartibga solinadi. Ushbu Oferta https://myinsurance.uz rasmiy veb-saytida va Sug‘urtalovchi ning Internet xizmatlarida mavjud.

Ushbu Oferta shartlarini qabul qilish va belgilangan sug‘urta mukofotini to‘lash, uning shartlarini akseptlash va Sug‘urta qildiruvchining “KASKO LIMIT GREEN” mahsuloti uchun sug‘urta shartnomasini tuzishga roziligi hisoblanadi. Sug‘urta qildiruvchi tomonidan sug‘urta mukofoti to‘langanligi fakti tasdiqlangach, unga “KASKO LIMIT GREEN” elektron sug‘urta polisi yuboriladi va sug‘urta shartnomasi tuzilgan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasini Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq, ushbu Oferta shartlarini so‘zsiz qabul qilish (aksept qilish) ommaviy Oferta shartlarini qabul qilish hisoblanadi va bu quyidagilarga:

- ushbu Oferta shartlari, shu jumladan unda ko‘rsatilgan sug‘urta shartlari bilan roziligini;
- sug‘urta polisini shakllantirish uchun taqdim etilgan shaxsga doir ma‘lumotlarga ishlov berishga, shu jumladan tizimlashtirish, saqlash, foydalanish, taqdim etish, tarqatishga, 5 yil muddatga sug‘urta faoliyatini amalga oshirish maqsadida ma‘lumotlarni avtomatlashtirilgan yoki avtomatlashtirish vositalaridan foydalanmagan holda ishlov berish yo‘li bilan uzatishga, shuningdek, ichki hujjat aylanishini ta‘minlash bo‘yicha sug‘urta shartlariga ko‘ra o‘z zimmalariga olgan majburiyatlarni bajarish uchun ularni uchinchi shaxslarga o‘tkazishga roziligini ifodalaydi.

Agar sug‘urta mukofoti to‘liq to‘lanmagan bo‘lsa, shuningdek, Sug‘urtalovchi tomonidan akseptni bekor qilish to‘g‘risidagi bildirishnoma akseptga qadar yoki u bilan bir vaqtda olingan bo‘lsa, aksept olinmagan hisoblanadi.

"Sug‘urta shartnomasi" va "Sug‘urta polisi" atamalari bundan keyin matnda ushbu elektron hujjatga nisbatan bir xil ma‘noga ega.

## JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARGA TEGISHLI EKOLOGIK TOZA YER USTI TRANSPORT VOSITALARI VA UNGA ALOQADOR XAVFLARNI SUG‘URTALASH – “KASKO LIMIT GREEN” SUG‘URTA POLISINING MUHIM SHARTLARI, OMMAVIY OFERTA SHARTLARI ASOSIDA TUZILGAN

### 1-BOB. ATAMALAR VA ULARNING TA’RIFLARI

**1.1.** Quyidagi keltirilgan atamalar ushbu Oferta doirasida quyidagi ma’nolarga ega:

- **“KASKO LIMIT GREEN”** – Sug‘urta qildiruvchiga tegishli bo‘lgan yer usti transport vositalariga (uning qismlariga) sug‘urta hodisasi natijasida yetkazilishi mumkin bo‘lgan zararlar uchun mazkur qoidalarga muvofiq belgilangan xavflardan sug‘urtalash.
- **Sug‘urta obyekti** bo‘lib, sug‘urta polisining amal qilishi davrida Sug‘urta qildiruvchining ekologik toza yer usti transport vositasi (keyingi matnlarda YUTV)ga (uning qismlariga) belgilangan xavfli holatlar oqibatida yetkazilgan zarar uchun Sug‘urtalovchi tomonidan to‘lab beriladigan moddiy manfaatlari hisoblanadi.
- **Sug‘urta subyektlari** bo‘lib, Sug‘urtalovchi hamda sug‘urta polisida Sug‘urta qildiruvchi va Naf oluvchi sifatida ko‘rsatilgan shaxslar hisoblanadi.
- **Sug‘urtalovchi** – umumiy sug‘urta sohasining tegishli klasslari bo‘yicha sug‘urtani amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan va sug‘urta shartnomasiga muvofiq sug‘urta tovonini to‘lash majburiyatini olgan tashkilot – «MY INSURANCE» AJ ST.
- **Sug‘urta qildiruvchi** – sug‘urta shartnomasiga asosan o‘z moddiy manfaatlarini yoki uchinchi tomonning moddiy manfaatlarini sug‘urtalaydigan va shu asosda sug‘urta mukofotini to‘laydigan jismoniy/yuridik shaxslar.
- **Naf oluvchi** – sug‘urta polisi uning foydasiga tuzilgan shaxs. Agar sug‘urta polisida boshqa shaxs foydasiga tuzilganligi ko‘rsatilmagan bo‘lsa, sug‘urta polisi Sug‘urtalangan shaxs foydasiga tuzilgan hisoblanadi. Sug‘urtalangan shaxsning o‘limi holatida esa O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan uning merosxo‘ri foydasiga tuzilgan hisoblanadi.
- **Haydovchi** – ekologik toza transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi ruxsat etilgan toifadagi haydovchilik guvohnomasiga va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq sug‘urtalangan YUTVni boshqarish uchun yozma ruxsatnomaga (ishonchnoma va/yoki yo‘l varaqasi) ega shaxs.
- **Sug‘urta polisi** – Sug‘urta qoidalariga asosan sug‘urta mukofoti to‘langandan so‘ng Sug‘urta qildiruvchiga elektron/qog‘oz ko‘rinishda beriladigan hamda sug‘urta qoidalari bo‘yicha Sug‘urta qildiruvchining majburiyatlari kuchga kirganini tasdiqlovchi hujjat.

info@myinsurance.uz
Toshkent sh. Kichik Mirobod 95
+998 95 341-20-20
+998 71 205-19-19

- **Sug'urta summasi** – Sug'urtalovchi sug'urta polisi bo'yicha Sug'urta qildiruvchi oldidagi majburiyatlarini qoplash uchun pul miqdorining eng yuqori hajmi.
- **Sug'urta mukofoti** – Sug'urta qildiruvchi tomonidan Sug'urtalovchiga sug'urta shartnomasida belgilangan tartibda va muddatlarda milliy valyutada yoki xorijiy valyutada to'lanadigan sug'urta uchun to'lov.
- **Sug'urta hodisasi** – amalda yuz bergan va ushbu sug'urta qoidalarida nazarda tutilgan hodisa bo'lib, u yuz berishi bilan Sug'urtalovchining ushbu qoidalar shartlariga muvofiq sug'urta tovonini to'lash majburiyati yuzaga keladi.
- **Sug'urta dalolatnomasi** – sug'urta hodisasi ro'y berganda sug'urta kompaniyasi vakili tomonidan tuziladigan va sug'urta hodisasi haqiqatda sodir bo'lganligini tasdiqlovchi hujjat.
- **Sug'urta tovoni** – sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan sug'urta hodisasi yuz berganda Sug'urta qildiruvchiga, sug'urta summasi doirasida to'lanadigan pul mablag'i miqdori.
- **Sug'urta qoplamasi hududi** – O'zbekiston Respublikasi.
- **Sug'urta javobgarligi vaqti** – Tunu-kun.
- **Sug'urta javobgarligining boshlanish davri** – Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash bo'yicha javobgarligi sug'urta mukofoti to'langan sanadan keyingi kunning 00:00 soatidan e'tiboran kuchga kiradi.
- **Yong'in** — odamlarning hayoti va/yoki sog'lig'iga, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga, shuningdek atrof tabiiy muhitga zarar yetkazadigan, nazorat qilib bo'lmaydigan yonish.
- **Daraxtlarning qulab tushishi** — tabiiy va texnogen ofatlar natijasida daraxt va butalarning sinishi, ildiz bo'g'inidan yoki ildizi bilan qo'porilishi.
- **Olib qochish** — transport vositasini talon-toroj qilish maqsadida o'g'rilik yoki talonchilik yo'li bilan sodir etilgan harakat.
- **Yo'l-transport hodisasi to'g'risidagi xabarnoma (evroprotokol)** — sodir etilgan yo'l-transport hodisasi haqida Sug'urtalovchiga xabar berish uchun YTH sodir bo'lgan joyda haydovchilar va Sug'urtalovchi vakili ishtirokida (shartli asosda) ixtiyoriy to'ldiriladigan, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligi yuzaga kelganligini tasdiqlovchi hujjat.
- **Franshiza (shartsiz)** – Sug'urta qildiruvchi ko'rgan zararining Sug'urtalovchi tomonidan har bir sug'urta hodisasi bo'yicha qoplanmaydigan qismi.

**1.2.** Ushbu Ofertada ishlatilgan barcha atamalar tegishli ravishda ushbu hujjatning o'zida yoki O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlarida belgilangan ma'noga ega bo'ladi.

## 2-BOB. SUG'URTALASH TARTIBI, SUG'URTA POLISINING AMAL QILISH MUDDATI VA BEKOR QILISH JARAYONI

2.1. Sug'urtalash, Sug'urta qildiruvchi sug'urta mukofotini to'laganidan so'ng, Sug'urtalovchi (yoki sug'urta agenti) tomonidan elektron yoki qog'oz ko'rinishidagi sug'urta polisining berilishi orqali rasmiylashtiriladi.

2.2. Sug'urta polisi sug'urta mukofoti to'langan kundan keyingi kun soat 00:00 dan kuchga kiradi va sug'urta polisida ko'rsatilgan muddat davomida amal qiladi.

- Sug'urta davri muddati chegaraviy bo'lib, birinchi sug'urta hodisasi bo'yicha sug'urta tovonining to'langan kunigacha amal qiladi.
- Sug'urta tovonining to'lanishi bilan sug'urta polisi keyingi qolgan muddat uchun o'z kuchini yo'qotgan hisoblanadi.

2.3. Tomonlar sug'urta polisidan istalgan vaqtda voz kechishi mumkin. Agar Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta polisi muddatidan oldin bekor qilinsa, to'langan sug'urta mukofoti qaytarib berilmaydi.

2.4. Ushbu Shartnoma quyidagi holatlarda tugatiladi:

a) Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta mukofoti Shartnomada ko'rsatilgan muddat va miqdorda to'lanmaganda;

b) Amal qilish muddati tugaganda;

v) Tomonlarning kelishuviga muvofiq;

g) Birinchi sug'urta hodisasi bo'yicha sug'urta tovoni to'langanda;

d) O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hollarda.

## 3-BOB. SUG'URTA HODISALARI

3.1. Sug'urta hodisasi — bu Sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan va amalda yuz bergan voqeadir, u sodir bo'lishi bilan Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash majburiyatini yuzaga keltiradi.

3.2. Sug'urta xatari — bu Sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) tuzilishiga sabab bo'lgan ehtimoliy voqea hisoblanadi.

info@myinsurance.uz
Toshkent sh. Kichik Mirobod 95
+998 95 341-20-20
+998 71 205-19-19

3.3. Mazkur Ofertaga muvofiq quyidagi xatarlar bo‘yicha sug‘urta hodisasi sodir bo‘lsa, sug‘urta himoyasi taqdim etiladi:

- 3.3.1. **Zararlanadigan holatlar** – yo‘l-transport hodisasi (amaldagi Yo‘l harakati qoidalarida belgilanganiga muvofiq), yong‘in, EUTVga daraxtlarning qulab tushishi;
- 3.3.2. **Olib qochish** – transport vositasini talon-toroj qilish maqsadida o‘g‘rilik yoki talonchilik yo‘li bilan sodir etilgan harakatlar.

## 4-BOB. SUG‘URTA SUMMASI VA MUKOFOTI

4.1. Bitta sug‘urta polisi uchun sug‘urta summasi 30 000 000 (o‘ttiz million) so‘mni tashkil etadi;

4.2. Sug‘urta mukofoti quyidagi jadval asosida, sug‘urta davriga nisbatan hisoblanadi:

| Sug’urta davri | Sug’urta mukofoti | Sug’urta summasi | To’lash tartibi |
|---|---|---|---|
| 1 kun | 10 000 so’m | 30 000 000 so’m | Bir yo’la |
| 1 hafta (7 kun) | 50 000 so’m | 30 000 000 so’m | Bir yo’la |
| 1 oy (30 kun) | 200 000 so’m | 30 000 000 so’m | Bir yo’la |
| 3 oy (90 kun) | 450 000 so’m | 30 000 000 so’m | Bo’lib to’lash imkoniyati mavjud |
| 6 oy (180 kun) | 600 000 so’m | 30 000 000 so’m | Bo’lib to’lash imkoniyati mavjud |
| 1 yil (365 kun) | 1 000 000 so’m | 30 000 000 so’m | Bo’lib to’lash imkoniyati mavjud |

## 5-BOB. ISTISNOLAR

5.1. Ushbu qoidalarga ko‘ra, quyidagi holatlar sug‘urta hodisasi deb hisoblanmaydi va javobgarlik olib borilmaydi:

- Sug‘urta qilingan EUTVni O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq boshqarishga huquqi va ruxsati (haydovchilik guvohnomasi, ishonchnoma, yo‘l varaqasi, majburiy sug‘urta polisi va boshqalar) bo‘lmagan shaxs tomonidan boshqarilishi. Mazkur bandning qoidalari sug‘urta qilingan EUTV o‘g‘irlangan taqdirda qo‘llanilmaydi;
- EUTVni spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop yoki kuchli ta’sir qiluvchi moddalar ta’sirida yoki o‘zgacha tarzda mast holatda, sezgirlik va e’tiborni susaytiradigan dori-darmonlar ta’sirida boshqarish, shuningdek, sug‘urtalangan transport vositasi haydovchisining YTH joyidan yashirinishi, ketib qolishi yoki tibbiy tekshiruv (mastlik holatini aniqlash bo‘yicha ekspertiza)dan o‘tishdan bosh tortsa yoki o‘tmagan bo‘lsa;
- Sug‘urta qiluvchi/Haydovchining sug‘urta hodisasini keltirib chiqarishga qaratilgan qasddan qilgan harakatlari (sug‘urta tovonini olishdagi tovlamachilik, o‘g‘irlik, firibgarlik va h.k.z);
- Yo‘lning harakat qismining notekisligi yoki yomon holati, o'tkir buyumlarni bosib o‘tishi tufayli shinlarning shikastlanishi, agar ularning shikastlanishi EUTVning shikastlanishiga yoki nobud bo‘lishiga olib kelmagan bo‘lsa, elektr toki qisqa tutashuvi yuzaga kelishi natijasida elektr uskunalari, detallari va tizimlariga zarar yetishi;
- EUTVga o‘rnatilgan va uning zavoddagi butlanishiga kirmaydigan qo‘shimcha jihoz-uskunalarning o‘g‘irlanishi, nobud bo‘lishi yoki shikastlanishi uchun, agar ushbu qo‘shimcha jihoz-uskunalar sug‘urta shartnomasining jadvalida tegishli pozitsiya bo‘yicha maxsus ko‘rsatilmagan bo‘lsa;
- Sug‘urta hodisasi yuz bergan vaqtda sug‘urtalangan transport vositasining ichida bo‘lgan mol-mulkka zarar yetishi;
- Haydovchining temir yo‘ldan o‘tishda yo‘l harakati qoidalarini buzishi, svetoforning taqiqlovchi chirog‘ida harakatlanishi va yo‘lning qarama-qarshi harakat yo‘l tasmasiga chiqib harakatlanishi, jumladan chiqib ketishi;
- O‘zbekiston Respublikasi Yo‘l harakati qoidalarining 78, 79, 80, 81-bandlarida ko‘rsatilgan transport vositalarining tezlik harakati qoidasi va quvib o‘tish qoidalarini buzish;
- Sug‘urta davrida sug‘urtalangan transport vositasiga egalik huquqi boshqa shaxsga o‘tgan taqdirda, transport vositasiga yetkazilgan har qanday zarar;
- Sug'urtalangan transport vositasining o'z-o'zidan yonishi (simlarda qisqa tutashuv sodir bo'lganda yong'in, sug'urtalangan transport vositasi zaryadlanganda yong'in va boshqalar);
- Shuningdek, sug‘urta qiluvchi/Naf oluvchi mazkur qoida shartlarini to‘liq yoki qisman bajarmagan bo‘lsa.

## 6-BOB. SUG‘URTA TOVONINI TO‘LASH TARTIBI VA SHARTLARI:

6.1. Sug‘urta qiluvchi yuz bergan hodisaning xususiyatidan kelib chiqib, zudlik bilan maxsus vakolatli organlarga xabar qilishi yoki voqea joyidan darhol har qanday maqbul yo‘l bilan (telefon, telegram, video qo‘ng‘iroq, pochta) Sug‘urtalovchiga xabar berishi shart. Xabar bergan kundan boshlab 10 (o‘n) ish kunidan kechiktirmagan holda yetkazilgan zarar haqida yozma xabarnoma va zarur hujjatlarni taqdim etishi lozim.

info@myinsurance.uz
Toshkent sh. Kichik Mirobod 95
+998 95 341-20-20
+998 71 205-19-19

6.2. Zararlangan EUTVni sug‘urtalovchi vakiliga ko‘rikdan o‘tkazish uchun taqdim etishi, EUTVning barcha zararlangan qismlarini foto va video suratga tushirishi va ta’mirlash ishlarini boshlashdan avval Sug‘urtalovchi bilan keyingi harakatlarini o‘zaro kelishib olishi shart.

6.3. Agar sug‘urta hodisasi yuzasidan voqea joyini ko‘zdan kechirish dalolatnomasi rasmiylashtirilmagan bo‘lsa, sug‘urta hodisasini ko‘rib chiqish uchun Sug‘urta qiluvchi tomonidan belgilangan shakldagi arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinishi shart:

- sug‘urta polisi;
- shaxsni tasdiqlovchi hujjat (pasport, haydovchilik guvohnomasi, ID karta) nusxalari;
- sug‘urtalangan mulkka bo‘lgan egalik huquqini tasdiqlovchi (EUTVning texnik pasporti) hujjatlar;
- YTH vaqtida transport vositasini boshqargan shaxsning haydovchilik guvohnomasi va transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi ishonchnomaning nusxasi;
- YTH vaqtida transport vositasini boshqargan shaxsning alkogol, narkotik yoki toksik modda yoxud taqiqlangan dori vositalari ta’sirida mast holatda bo‘lgan yoki bo‘lmaganligi haqida vakolatli tashkilotning tekshiruv xulosasi;
- zarar miqdori to‘g‘risidagi baholovchi hisobot yoki ustaxona kalkulyatsiyasi;
- zarurat bo‘lganda yuz bergan hodisaning xususiyatidan kelib chiqib, belgilangan shakldagi sug‘urta hodisasi yuz berganlik shart-sharoitlarini tasdiqlovchi hujjatlar, jumladan yo‘l-transport hodisasi to‘g‘risidagi xabar-noma (yevrop protokol), sug‘urta dalolatnomasi;
- maxsus vakolatli organlar (DYo‘XXX, IIV, FVV, Gidrometeorologik xizmat, sud va boshqalar) qarori.

## 7-BOB. SUBROGATSIYA:

7.1. Fuqarolik kodeksining 957-moddasiga ko‘ra, Sug‘urta qiluvchi (naf oluvchi) sug‘urta hodisasi natijasida qoplangan zarar uchun javobgar shaxsdan talab qilish huquqini to‘langan summa doirasida sug‘urta tovonini to‘lagan Sug‘urtalovchiga o‘tkazishi shart.

7.2. Sug‘urta qiluvchi (naf oluvchi) Sug‘urtalovchi o‘ziga o‘tgan talab qilish huquqini amalga oshirishi uchun zarur bo‘lgan barcha hujjatlar va dalillarni Sug‘urtalovchiga berishi hamda barcha ma’lumotlarni unga ma’lum qilishi shart.

7.3. Agar Sug‘urta qiluvchi (naf oluvchi) Sug‘urtalovchi tomonidan qoplangan zarar uchun javobgar shaxsga nisbatan o‘zining talab qilish huquqidan voz kechsa yoki bu huquqni amalga oshirish sug‘urta qiluvchining (naf oluvchining) aybi bilan mumkin bo‘lmagan bo‘lsa, Sug‘urtalovchi sug‘urta tovonini to‘liq yoki uning tegishli qismini to‘lashdan ozod qilinadi va tovonning ortiqcha to‘langan summasini qaytarishni talab qilish huquqiga ega bo‘ladi.

## 8-BOB. UMUMIY SHARTLAR

8.1. Hisoblangan sug‘urta mukofoti bir yo‘la yoki oylik (3 oy va undan ortiq muddatga rasmiylashtirilgan polislar uchun) grafik asosida teng miqdorlarda bo‘lib-bo‘lib to‘lanishi mumkin. Bunda oylik to‘lov har oyning 15-sana-sigacha to‘lanishi kerak.

Sug‘urta qiluvchi sug‘urta hodisasi sodir bo‘lgunga qadar sug‘urta polisida ko‘rsatilgan sug‘urta mukofotining faqatgina ma’lum bir qismini to‘lagan bo‘lsa, sug‘urta tovonini to‘lash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) agar Sug‘urta qiluvchi sug‘urta mukofotini to‘lash grafik muddatini buzmagan bo‘lsa, u holda Sug‘ur-talovchi sug‘urta tovonini sug‘urta hodisasi yuz bergan vaqtda to‘lanmagan sug‘urta mukofoti summasini chegirgan holda to‘laydi;

b) agar Sug‘urta qiluvchi sug‘urta mukofotini to‘lash grafik muddatini buzgan bo‘lsa, u holda Sug‘urtalovchi sug‘urta tovonini sug‘urta hodisasi yuz bergan vaqtda sug‘urta summasining miqdorini sug‘urta mukofotining to‘langan qismiga mutanosib ravishda to‘laydi.

8.2. Sug‘urtalovchi sug‘urta tovonini to‘lash bo‘yicha qaror qabul qilishi uchun Sug‘urta qiluvchi (Sug‘urta-langan shaxs, Naf oluvchi) va boshqa manbalardan zarur hujjatlarni belgilangan tartibda talab qilish huquqiga ega.

8.3. Sug‘urta tovoni Sug‘urta qiluvchi (Sug‘urtalangan shaxs yoki Naf oluvchi)ning bank plastik kartasiga pul o‘tkazish yo‘li bilan barcha zarur hujjatlar olingandan so‘ng, sug‘urta tovonini to‘lash bo‘yicha dalolatnoma tasdiqlangan kundan e’tiboran 5 (besh) ish kuni davomida to‘lab beriladi. Hodisa yuzasidan jinoyat ishi ochilgan ho-latda sug‘urta tovonini to‘lash to‘xtatib turiladi.

8.4. Sug‘urta tovoni Sug‘urtalovchi tomonidan, qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnomaga ko‘ra Sug‘urta qiluvchi (Sug‘urtalangan shaxs yoki Naf oluvchi)ning vakiliga to‘lab berilishi mumkin.

8.5. Sug‘urta qiluvchi sug‘urta davri mobaynida sug‘urtalangan EUTVga tegishli ma’lumotlar o‘zgargan taqdirda, Sug‘urtalovchiga 3 (uch) ish kunida xabar berishi shart va shu asosda Sug‘urta qiluvchiga sug‘urta polisi qayta rasmiylashtirib beriladi.

8.6. Agar Sug‘urta qiluvchi (Naf oluvchi) zarar yetkazganlik uchun javobgar shaxslardan pul mablag‘i olgan bo‘lsa, Sug‘urtalovchi sug‘urta qilish shartlari bo‘yicha javobgar shaxsdan olingan pul mablag‘i va haqiqiy zarar o‘rtasidagi farqni sug‘urta summasi doirasida to‘lab beradi.

8.7. Agar amaldagi qonunchilikda koʻzda tutilgan da'vo muddati davomida Qonun yoki sugʻurta polisi boʻyicha Sugʻurta qiluvchini toʻliq yoki qisman tovon olish huquqidan mahrum qiluvchi holatlar aniqlansa, Sugʻurta qiluvchi sugʻurta hodisasi roʻy berishi natijasida polis boʻyicha olgan sugʻurta tovonini Sugʻurtalovchiga qaytarib berishga majbur.

8.8. Sugʻurta qiluvchi sugʻurta polis muddati tugamasidan oldin har qanday sababga koʻra undan voz kechgan taqdirda, Sugʻurtalovchiga toʻlangan sugʻurta mukofoti qaytarib berilmaydi.

Filiallarning manzillari, telefonlari va ish vaqti Sugʻurtalovchining rasmiy veb-saytida koʻrsatilgan.

Manzil: 100015, Toshkent sh., Kichik Mirobod ko'chasi, 95
Bank nomi: OʻZR TIF "MILLIY BANK" SAYOHAT FILIALI
Bank kodi: 00450
Bank h/r.: 20208000104786066001
XXTUT: 96220
STIR: 207002342
Rasmiy internet sayti: https://myinsurance.uz
Elektron pochta: info@myinsurance.uz

info@myinsurance.uz
Toshkent sh. Kichik Mirobod 95
+998 95 341-20-20
+998 71 205-19-19

**ПУБЛИЧНАЯ ОФЕРТА О СТРАХОВАНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ТРАНСПОРТНЫХ СРЕДСТВ И СВЯЗАННЫХ С НИМИ РИСКОВ ПО СТРАХОВОМУ ПРОДУКТУ "KASKO LIMIT GREEN" ДЛЯ ФИЗИЧЕСКИХ И ЮРИДИЧЕСКИХ ЛИЦ**

Настоящая Публичная Оферта (далее — «Оферта») представляет собой обращённое Страховой организацией Акционерное Общество «MY-INSURANCE» предложение неограниченному кругу физических и юридических лиц заключить договор страхования экологических транспортных средств и связанных с ними рисков по страховому продукту «KASKO LIMIT GREEN» на условиях, указанных в Оферте, через официальный веб-сайт Страховщика или через его интернет-сервисы (автоматизированную информационную систему, мобильное приложение).

Настоящая Оферта доступна на официальном веб-сайте https://myinsurance.uz и в интернет-сервисах Страховщика.

Акцепт настоящей Оферты и уплата установленной страховой премии являются подтверждением согласия Страхователя с условиями Оферты и его намерения заключить договор страхования по продукту «KASKO LIMIT GREEN». После подтверждения факта уплаты страховой премии Страхователю направляется электронный страховой полис «KASKO LIMIT GREEN», и договор страхования считается заключённым.

В соответствии со статьёй 370 Гражданского кодекса Республики Узбекистан, безусловное принятие (акцепт) условий настоящей Оферты считается согласием с условиями публичной оферты и означает следующее:

- согласие с условиями настоящей Оферты, включая изложенные в ней условия страхования;
- согласие на обработку персональных данных, предоставленных для формирования страхового полиса, в том числе на систематизацию, хранение, использование, передачу, распространение данных в течение 5 лет в целях осуществления страховой деятельности, как с использованием автоматизированных средств, так и без них, а также на передачу этих данных третьим лицам для выполнения обязательств по договору страхования и обеспечения внутреннего документооборота.

В случае если страховая премия не была уплачена в полном объёме, а также если уведомление Страховщика об отказе от акцепта получено до акцепта либо одновременно с ним, акцепт считается не состоявшимся.

Термины «Договор страхования» и «Страховой полис» в настоящем документе имеют одинаковое значение и применяются к данному электронному документу.

**СТРАХОВАНИЕ НАЗЕМНЫХ ТРАНСПОРТНЫХ СРЕДСТВ, ПРИНАДЛЕЖАЩИХ ФИЗИЧЕСКИМ И ЮРИДИЧЕСКИМ ЛИЦАМ, И СВЯЗАННЫХ С НИМИ РИСКОВ – ОСНОВНЫЕ УСЛОВИЯ СТРАХОВОГО ПОЛИСА "KASKO LIMIT GREEN", ЗАКЛЮЧЕННОГО НА ОСНОВАНИИ УСЛОВИЙ ПУБЛИЧНОЙ ОФЕРТЫ**

## Глава 1. ТЕРМИНЫ И ИХ ОПРЕДЕЛЕНИЯ

**1.1.** Следующие термины в рамках настоящей Оферты имеют следующие значения:

- **"KASKO LIMIT GREEN"** – страхование экологических наземных транспортных средств (или их частей), принадлежащих Страхователю, от рисков, предусмотренных настоящими правилами, на случай причинения ущерба в результате страхового случая.
- **Объект страхования** – материальные интересы Страхователя, связанные с экологическими наземным транспортными средствами (далее – НТС), в том числе его частями, на случай нанесения ущерба вследствие определённых опасных событий в период действия страхового полиса.
- **Субъекты страхования** – Страховщик, а также лица, указанные в страховом полисе как Страхователь и Выгодоприобретатель.
- **Страховщик** – организация АО «MY INSURANCE», обладающая лицензией на осуществление страховой деятельности по соответствующим видам общего страхования и принявшая на себя обязательство выплатить страховое возмещение по договору страхования.
- **Страхователь** – физическое или юридическое лицо, страхующее в соответствии с договором страхования свои имущественные интересы либо имущественные интересы третьего лица, и уплачивающее страховую премию.
- **Выгодоприобретатель** – лицо, в пользу которого заключён страховой полис. Если в полисе не указано иное, он считается заключённым в пользу Застрахованного лица. В случае смерти Застрахованного лица выгодоприобретателем признаётся его наследник, определённый действующим законодательством Республики Узбекистан.

info@myinsurance.uz
Toshkent sh. Kichik Mirobod 95
+998 95 341-20-20
+998 71 205-19-19

- **Водитель** – лицо, имеющее водительское удостоверение соответствующей категории и письменное разрешение (доверенность и/или путевой лист) на управление застрахованным НТС в соответствии с действующим законодательством Республики Узбекистан.
- **Страховой полис** – документ в электронной или бумажной форме, выдаваемый Страхователю после уплаты страховой премии, подтверждающий вступление в силу его обязательств согласно Оферте страхования.
- **Страховая сумма** – максимальный размер денежного обязательства Страховщика перед Страхователем по страховому полису.
- **Страховая премия** – сумма, подлежащая уплате Страхователем Страховщику в установленном порядке и сроках, в национальной или иностранной валюте, по договору страхования.
- **Страховой случай** – фактически произошедшее событие, предусмотренное настоящими правилами страхования, в результате которого у Страховщика возникает обязанность по выплате страхового возмещения.
- **Акт о страховом случае** – документ, составляемый представителем страховой компании при наступлении страхового случая и подтверждающий факт его наступления.
- **Страховое возмещение** – сумма денежных средств, выплачиваемая Страхователю в пределах страховой суммы при наступлении страхового случая, предусмотренного договором страхования.
- **Территория покрытия страхования** – Республика Узбекистан.
- **Время действия ответственности Страховщика** – круглосуточно.
- **Начало ответственности Страховщика** – с 00:00 часов дня, следующего за датой оплаты страховой премии.
- **Пожар** – неконтролируемое горение, наносящее ущерб жизни и/или здоровью людей, имуществу юридических и физических лиц, а также окружающей природной среде.
- **Падение деревьев** – поломка, падение деревьев или кустарников (включая с корнем) в результате природных и техногенных катастроф.
- **Угон** – хищение транспортного средства путём кражи или грабежа с целью присвоения.
- **Уведомление о ДТП (европротокол)** – документ, добровольно составляемый на месте происшествия с участием водителей и представителя Страховщика (условно), для уведомления о произошедшем ДТП, подтверждающий факт возникновения гражданской ответственности владельцев транспортных средств.
- **Франшиза (безусловная)** – часть убытка, понесённого Страхователем, которая не возмещается Страховщиком по каждому страховому случаю.

**1.2.** Все термины, используемые в настоящей Оферте, имеют значения, определённые в самом документе либо в нормативно-правовых актах Республики Узбекистан.

## 2. ПОРЯДОК СТРАХОВАНИЯ, СРОК ДЕЙСТВИЯ СТРАХОВОГО ПОЛИСА И ПРОЦЕДУРА ЕГО АННУЛИРОВАНИЯ

**2.1.** Страхование оформляется выдачей Страховщиком (или страховым агентом) Страхователю страхового полиса в электронной или бумажной форме после уплаты страховой премии.

**2.2.** Страховой полис вступает в силу с 00:00 часов следующего дня после оплаты страховой премии и действует в течение срока, указанного в полисе.

- Срок страхования является предельным и действует до даты выплаты страхового возмещения по первому страховому случаю.
- После выплаты страхового возмещения страховой полис теряет силу на оставшийся срок.

**2.3.** Стороны могут отказаться от страхового полиса в любое время. Если страховой полис аннулируется досрочно по инициативе Страхователя, уплаченная страховая премия не возвращается.

**2.4.** Настоящий договор прекращается в следующих случаях:

а) Если Страхователь не оплатил страховую премию в срок и размере, указанных в договоре;
b) По истечении срока действия договора;
в) По соглашению сторон;
г) После выплаты страхового возмещения по первому страховому случаю;
д) В иных случаях, предусмотренных законодательством Республики Узбекистан.

## 3. СТРАХОВЫЕ СЛУЧАИ

**3.1.** Страховой случай — событие, предусмотренное договором страхования, которое фактически произошло и вызвало обязанность Страховщика выплатить страховое возмещение.

info@myinsurance.uz
Toshkent sh. Kichik Mirobod 95
+998 95 341-20-20
+998 71 205-19-19

**3.2.** Страховой риск — вероятное событие, которое может стать основанием для заключения договора страхования (страхового полиса).

**3.3.** В соответствии с настоящей Офертой страховое покрытие предоставляется по следующим рискам:

- **3.3.1.** Повреждения в результате дорожно-транспортного происшествия (согласно действующим Правилам дорожного движения), пожара, падения деревьев на наземное транспортное средство;
- **3.3.2.** Угон — действия, направленные на хищение транспортного средства путём кражи или грабежа с целью его присвоения.

## 4. СТРАХОВАЯ СУММА И СТРАХОВАЯ ПРЕМИЯ

**4.1.** Страховая сумма по одному страховому полису составляет 30 000 000 (тридцать миллионов) сумов.

**4.2.** Страховая премия рассчитывается по следующей таблице в зависимости от срока страхования:

| Срок страхования | Страховая премия | Страховая сумма | Способ оплаты |
|---|---|---|---|
| 1 день | 10 000 сум | 30 000 000 сум | Единовременно |
| 1 неделя (7 дней) | 50 000 сум | 30 000 000 сум | Единовременно |
| 1 месяц (30 дней) | 200 000 сум | 30 000 000 сум | Единовременно |
| 3 месяца (90 дней) | 450 000 сум | 30 000 000 сум | Возможна оплата частями |
| 6 месяцев (180 дней) | 600 000 сум | 30 000 000 сум | Возможна оплата частями |
| 1 год (365 дней) | 1 000 000 сум | 30 000 000 сум | Возможна оплата частями |

## 5. ИСКЛЮЧЕНИЯ

**5.1.** В соответствии с настоящими правилами, следующие случаи не считаются страховым событием, и ответственность по ним не наступает:

- Управление застрахованным транспортным средством лицом, не имеющим права и разрешения на управление в соответствии с действующим законодательством Республики Узбекистан (водительское удостоверение, доверенность, путевой лист, обязательный страховой полис и др.). Правила данного пункта не применяются, если транспортное средство было угнано;
- Управление транспортным средством в состоянии алкогольного, наркотического или иного опьянения, а также под воздействием психотропных, сильнодействующих или иных препаратов, снижающих внимание и реакцию; скрытие водителем застрахованного транспортного средства с места ДТП, отказ или несдача медицинского освидетельствования;
- Умышленное совершение действий со стороны страхователя/водителя, повлекших страховое событие (мошенничество, кража, обман и др.);
- Повреждение шин вследствие неровностей или плохого состояния дороги, проколы острыми предметами, если это не повлекло повреждение или гибель транспортного средства, повреждение электрооборудования вследствие короткого замыкания;
- Кража, повреждение или уничтожение дополнительного оборудования, не входящего в заводскую комплектацию, если это специально не оговорено в договоре страхования;
- Повреждение имущества, находившегося внутри застрахованного транспортного средства в момент страхового события;
- Нарушение правил дорожного движения при проезде железнодорожного переезда, движение на запрещающий сигнал светофора, движение по встречной полосе;
- Нарушение правил скоростного режима и обгона, указанные в статьях 78, 79, 80, 81 ПДД Республики Узбекистан;
- Самовозгорание застрахованного ТС (возгорание в случае замыкания проводов, возгорание в случае зарядки Застрахованного ТС и т.п.)
- Повреждения транспортного средства, если право собственности на него перешло другому лицу в период действия страховки;
- Невыполнение страхователем/выгодоприобретателем условий настоящего пункта полностью или частично.

## 6. ПОРЯДОК И УСЛОВИЯ ВЫПЛАТЫ СТРАХОВОГО ВОЗМЕЩЕНИЯ

**6.1.** Страхователь обязан незамедлительно сообщить о происшествии в уполномоченные органы или страховщику (по телефону, в мессенджерах, письменно и др.). В течение 10 рабочих дней с момента

уведомления необходимо предоставить письменное заявление и все необходимые документы о причинённом ущербе.

**6.2.** Повреждённое транспортное средство должно быть предоставлено для осмотра представителю страховщика, все повреждённые части – сфотографированы и засняты на видео. Ремонтные работы начинаются только после согласования с страховщиком.

**6.3.** Если не составлен акт осмотра места происшествия, для рассмотрения страхового случая страхователю необходимо приложить к заявлению следующие документы:

- страховой полис;
- копии удостоверяющих личность документов (паспорт, водительское удостоверение, ID карта);
- документы, подтверждающие право собственности на имущество (технический паспорт ТС);
- копии водительского удостоверения и доверенности (если была) лица, управлявшего ТС во время ДТП;
- заключение компетентного органа о состоянии водителя (алкогольное, наркотическое опьянение и пр.);
- экспертную оценку ущерба или расчёт стоимости ремонта;
- подтверждающие документы об обстоятельствах происшествия (протокол ДТП, страховой акт);
- решение компетентных органов (ГАИ, МВД, МЧС, гидрометеослужба, суд и др.).

## 7. СУБРОГАЦИЯ

**7.1.** В соответствии со статьёй 957 Гражданского кодекса, страхователь (выгодоприобретатель) обязан передать страховщику право требования к лицу, ответственного за ущерб, возмещённый страховщиком в пределах выплаченной страховой суммы.

**7.2.** Страхователь (выгодоприобретатель) обязан предоставить страховщику все необходимые документы и доказательства для реализации права требования, а также сообщать ему всю известную информацию.

**7.3.** Если страхователь (выгодоприобретатель) отказывается от права требования к лицу, ответственному за ущерб, возмещённый страховщиком, либо осуществление этого права стало невозможным по вине страхователя (выгодоприобретателя), страховщик освобождается от обязанности полностью или частично выплачивать страховое возмещение и имеет право требовать возврата излишне выплаченной суммы.

## ГЛАВА 8. ОБЩИЕ УСЛОВИЯ

**8.1.** Начисленная страховая премия может быть уплачена единовременно или в рассрочку ежемесячно (для полисов, оформленных сроком на 3 месяца и более) равными долями по графику. При этом ежемесячный платеж должен быть произведен до 15-го числа каждого месяца.

Если страхователь до наступления страхового случая оплатил только определённую часть страховой премии, указанной в страховом полисе, выплата страхового возмещения осуществляется в следующем порядке:

**а)** если страхователь не нарушил срок уплаты страховой премии по графику, то страховщик выплачивает страховое возмещение за вычетом суммы неоплаченной страховой премии на момент наступления страхового случая;

**б)** если страхователь нарушил срок уплаты страховой премии по графику, то страховщик выплачивает страховое возмещение пропорционально уплаченной части страховой премии по отношению к сумме страхового покрытия на момент наступления страхового случая.

**8.2.** Для принятия решения о выплате страхового возмещения страховщик имеет право требовать у страхователя (застрахованного лица, выгодоприобретателя) и других источников все необходимые документы в установленном порядке.

**8.3.** Страховое возмещение выплачивается на банковскую пластиковую карту страхователя (застрахованного лица или выгодоприобретателя) в течение 5 (пяти) рабочих дней с даты утверждения акта о выплате страхового возмещения при наличии всех необходимых документов. В случае возбуждения уголовного дела по факту происшествия, выплата страхового возмещения приостанавливается.

**8.4.** Страховое возмещение может быть выплачено представителю страхователя (застрахованного лица или выгодоприобретателя) на основании оформленной в установленном законодательством порядке доверенности.

**8.5.** Если в течение срока действия договора страхования изменились сведения, касающиеся застрахованного транспортного средства (ЕУТВ), страхователь обязан уведомить об этом страховщика в течение 3 (трёх) рабочих дней. На основании этого страховой полис подлежит переоформлению.

**8.6.** Если страхователь (выгодоприобретатель) получил денежные средства от лиц, ответственных за причинение ущерба, страховщик в рамках условий страхования оплачивает разницу между фактически причинённым ущербом и полученной суммой в пределах страховой суммы.

**8.7.** Если в течение срока исковой давности, установленного действующим законодательством, выявляются обстоятельства, в результате которых страхователь лишается полностью или частично права на получение страхового возмещения по Закону или условиям страхового полиса, страхователь обязан возвратить страховщику сумму страхового возмещения, полученного в связи с наступлением страхового случая.

**8.8.** В случае досрочного отказа страхователя от действия страхового полиса по любой причине, уплаченная страховая премия страховщиком не возвращается.

Адреса, телефоны и режим работы филиалов указаны на официальном сайте Страховщика.

Реквизиты Страховщика:
Полное наименование:
Акционерное общество Страховая Компания «MY-INSURANCE»
Адрес:100015, г. Тошкент, улица «Kichik Mirobod», 95
Банк: АО Национальный банк Республики Узбекистан ЦБУ «Саёхат»
МФО: 00450
Банк р/с.: 2020 8000 1047 8606 6001
ОКЕД: 96220
ИНН: 207002342
Официальный интернет - сайт: https://myinsurance.uz
Электронная почта: info@myinsurance.uz